

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINI GRAMMATIK TEGGLASH

G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Alisher Navoiy g‘azallarini tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta‘minlash uchun grammatik teglash va leksik, morfologik jihatdan tahlil qilish lozim. Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika arxaizm va istorizm so‘zlarning vujudga kelishi va ko‘plab so‘z ma‘nolarining tubdan o‘zgarganligi, Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar, bugun ma‘no o‘zgarishiga, ma‘no torayishiga uchrab yoki so‘zning boshqa atash ma‘nosiga o‘tganligi Navoiy g‘azallari grammatik tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi. Navoiy g‘azallarini grammatik tahlili natijasida muallif til uslubi, tez-tez ishlatiluvchi til birliklari va o‘ziga xos ijod usuli aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: tahlil, g‘azal, bayt, lingvostatistik tahlil, til birliklari, turkum.

GRAMMATICAL TOUCH OF ALISHER NAVOI GHAZALS

Abstract: To ensure that Alisher Navoi’s poems are understandable and readable, it is necessary to use grammatical analysis and lexical and morphological analysis. With the lexicology of Navoi’s time, the emergence of modern lexical words archeism and historism and the radical change of many word meanings, words with other morphological features in Navoi’s time, the change of meaning today, the narrowing of meaning or the transition of the word to another noun meaning shows the importance of grammatical analysis of Navoi's ghazals. The grammatical analysis of Navoi’s poems reveals the author’s style of language, common language units, and unique style of creation.

Key words: analysis, poem, byte, linguistic statistic, linguistic units, morpheme, category.

ГРАММАТИЧЕСКАЯ МАРКИРОВКА ГАЗЕЛЕЙ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: Для того чтобы стихи Алишера Навои были понятны и читательны, необходимо использовать грамматический и лексико-морфологический анализ. С лексикологией Навоийского времени, появлением современных лексических слов архаизмов и историзмов, коренным изменением значений многих слов, слов с другими морфологическими признаками в то время, дошедшие с изменённым значением на сегодня, его сужением или переходом слова в ряд существительного с другим значением, показывает важность грамматического анализа газелей Навои. Грамматический анализ стихотворений Навои выявляет авторский стиль языка, общеупотребительность языковых единиц, неповторимость стиля творчества.

Ключевые слова: анализ, стихотворение, байт, лингвистическая статистика, языковые единицы, морфема, категория.

Badiiy matnlarning grammatik tahlili natijasida muallif til uslubi, tez-tez ishlatiluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit soʻzlar, feʼllar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir soʻz bilan aytganda, yozuvchining idiosstilini – oʻziga xos uslubini koʻrsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi[1]. Grammatik maʼno ifodalashning turli vositasi mavjud: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vosita shular jumlasidan. Demak, grammatik maʼnoni faqat soʻz yoki soʻz shaklga nisbat berish maʼqul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birlik grammatik ahamiyat kasb etishi mumkin. Grammatik maʼno deganda til birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt maʼnolari tushuniladi. Alisher Navoiy asarlarining lugʻat boyligini oʻrganish va maʼnolar xazinasini talqin qilish boʻyicha ham asrlar davomida bir qator oʻta diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan[2].

Navoiy asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamon oʻzbek tili va X -XIII asr yodnomalari tilining fonetikasidan oʻzining baʼzi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan masalalar hali toʻliq-toʻkis ravishda hal qilingani yoʻq[3]. Navoiy nutqining fonetik boʻlaklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qilganlar. Navoiy nutqining ham fonetik boʻlaklari jumla, sintagma, takt, boʻgʻin va tovushlardan iboratligini, jumla eng yirik fonetik birlik boʻlib, nutqning ikki pauza orasidagi maxsus intonatsiyaga ega boʻlgan boʻlagidir. Jumla odatda gapga toʻgʻri keladi, chunki jumlaning pauzasi fikriy tugallik, intonatsiyasi esa gapning mazmuniga bogʻliqdir.

Til belgilarining oʻzi quyidagilarga boʻlinadi: morfologik (taʼkidlovchi affikslar, qoʻshma soʻzlar va boshqalar), lemmatizatsiya (har bir soʻz shakli uchun asl nusxasidagi koʻrsatma) morfo-sintaktik yoki nutqning bir qismini belgilash (asoslarni ajratib koʻrsatish, nutq qismini va grammatik kategoriyalarning belgilarini aniqlash), sintaktik (sintaktik aloqaning xususiyati, gap turi, gap aʼzosi va boshqalar), semantik (semantik omonimiyani olib tashlash, anafora va yadrolarni yechish, axborot tuzilishini aniqlash va boshqalar), diskursiv (eslatmalar, kommunikativ harakatlar va boshqalar)[4]. Mumtoz asarlarda qoʻllanilgan soʻzlarni taʼlim tizimida samarali foydalanish, oʻzbek xalqining barcha davrlarga oid milliy adabiy merosini sunʼiy intellektga kiritish, asrlar davomida yashab kelayotgan davlat tilining raqamli texnologiyalar uchun koʻrinishini yaratish, lingvistik tarjimon va matnlarni tahlil qilish dasturlari, Alisher Navoiy asarlari parallel korpusini yaratish imkoniyatlari yanada oshadi. Shu bois Navoiy soʻzliklarini grammatik teglash ahamiyatli hisoblanadi.

Grammatik maʼno oʻz mazmuniga ega boʻlib, bir guruhdagi barcha soʻzlarning biror belgisini koʻrsatadi va umumiylik belgisiga ega boʻladi. Grammatik maʼno leksik maʼnoga qaraganda ancha mavhumroq ekanligi uning biror guruhdagi soʻzning umumiy belgisini ifodalashi bilan izohlanadi. Grammatik maʼnoni grammatik vositalarsiz aniqlab[5] boʻlmaydi. Masalan, mehr, mehrni, mehrda, mehrdin kabi soʻz shakllari qiyoslanganda, ulardagi kelishik

qo‘shimchalari, yoki bo‘ldi, bo‘lur, bo‘lar kabi fe‘l shakllarini qiyoslasak, ulardagi zamonga tegishli qo‘shimchalar grammatik ma‘noni ifodalovchi vositalar hisoblanadi.

Morfema til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo‘lib, leksemadan farqli holda grammatik ma‘no ifodalashga xizmat qiladi)[6]. Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o‘z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyingina butun holatiga o‘tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o‘zi mansub turkum leksemasiga qo‘shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema qo‘shiladigan[7] birlik, morfema – leksemaga qo‘shiladigan birlik (shu xususiyati nazarda tutib morfema *qo‘shimcha* deb nomlanadi).

So‘zning morfem tahlil qilishda so‘zning barcha morfemalari (ham yetakchi morfema, ham ko‘makchi morfema) alohida tahlil qilinadi. Masalan, *nomehribonim* so‘zini morfem tahlil qilganda mehribon –yetakchi (asos morfema), no-, -bon ko‘makchi morfema, vazifasiga ko‘ra so‘z yasovchi morfema, -im – ko‘makchi morfema, vazifasiga ko‘ra shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi morfema sanaladi. Demak, *nomehribonim* so‘zi to‘rtta ma‘noli qismga bo‘linadi: bitta yetakchi morfema va uchta ko‘makchi morfema ko‘rinishida. Bu tahlil jadvalda quyidagicha ko‘rinish hosil qiladi:

So‘z	Yetakchi morfema	Ko‘makchi morfema		
		So‘z yasovchi morfema	Shakl yasovchi morfema	
			Lug‘aviy shakl yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi
dilistonim	dil	-iston	-	-im
bemiqdor	Miqdor	be-	-	-
xabarsiz	Xabar	-siz	-	-
oqara	oq (sifat)	-ar	-a	-
yo‘llanmoq	yo‘l	-la	-n, -moq	-
kulgu (kulgi)	kul (fe‘l)	-gu (-gi)	-	-
yig‘latadur	yig‘i (ot) (unli fonema tushishi)	-la	-t,	-adur (-adi)
bekaslik	Kas	be-, -lik	-	-
qilibon	qil (moq)	-	-ibon (-ib)	-
orazingni	Oraz	-	-	-ing, -ni

Yuqoridagi jadvaldagi *yig‘latadur* so‘zining tahliliga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, shu jihatni e‘tiborga olishimiz kerakki, asl turkiy, o‘zbekcha so‘zlar asosida fuziya (yoki fleksiya – tovush o‘zgarishlari) hodisasi kuzatilmaydi. Bu so‘zda esa fuziya so‘z asosida kuzatilmoqda. – adur shakli ham arxaik shakl sifatida tahlil qilinadi. Quyidagi baytda ham shunga o‘xshash holatlarni kuzatishimiz mumkin:

Labki xandon qilibon qosh-u ko‘zin o‘ynatadur,
O‘ynay-o‘ynay meni bechorani qon yig‘latadur.

So‘z	Yetakchi morfema	Ko‘makchi morfema		
		So‘z yasovchi morfema	shakl yasovchi morfema	
			Lug‘aviy shakl yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi
o‘ynatadur	o‘yin	-a	-t	-adur (arxaik)
xandong‘a	Xanda	-n	-	-g‘a (arxaik)

So‘z yasalish tahlili (yasalma) har doim ikki qismdan iborat bo‘ladi, bunda shakl yasovchi qo‘shimchalar e‘tiborga olinmaydi: 1. Yasashga asos qism. 2. Yasovchi vosita:

Yasalma	Yasashga asos qism	Yasovchi vosita
bekaslik	Bekas	-lik
notovon	Tovon	no-
ta‘limgoh	ta‘lim	-goh
odamiy	Odam	-iy

Alisher Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo‘lgan leksika sohasidagi bilimlar bilan qurollangan. Ana shu bilim asosida turk tilining lug‘at boyligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenta bo‘lmagan bir qancha so‘zlarni topadi. Ana shunday so‘zlarga turk tilidan yuzta fe‘lni keltiradi. Bu fe‘llar Alisher Navoiy o‘zbek tilining imkoniyatlarini ko‘rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchkovlik bilan chuqur o‘rganganligini isbotlovchi dalillardir. Navoiy yuqoridagi fe‘llarning ba‘zilari umumiy, birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, lekin paradigma a‘zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi[9]. Masalan, Navoiy “Badoye’ ul-vasat” devonida *tabassum*, *xandon otmoq*, *shakarxand*, *no‘shxand*, *kulgu* so‘zlari “kulmoq” umumlashtiruvchi sememasi bilan bir xil ma’noga ega bo‘lsa ham ammo ularning har qaysisi kulguning turli xil ko‘rinishlarini ifodalaydi. Bu so‘zlarning umumiy ma’nosi bir bo‘lsada, lekin ular kulguning sifatlariga ko‘ra farqlanadi.

Navoiy g‘azallarida arxaik va tarixiy so‘zlar badiiy va ommaviy uslublarni hosil qiladi. Arxaizm va tarixiy so‘zlar yozma adabiyotda tarixiy davrni tasvirlash uchun, uslubiy ma’noda esa asar qahramonini ta’riflash, uning eskilikka moyilligini ko‘rsatish, mazax, kulgu mazmunida qo‘llanadi[10]. Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonida qo‘llagan arxaizm va istorizm so‘zlarni tahlil qilishi mualliflik korpusini yaratish jarayonida bayt va misralarini grammatik[11] teglashda muhim hisoblanadi:

Arxaizm	Ma'nosi	Istorizm	Ma'nosi
Day	Qish	Vasat	E'tidol
Chug'z	Boyqush, boyo'g'li	Usturlob	Munajjamlar asbobi
Livo	Bayroq	Murtoz	Riyozat chekuvchi, so'fiy
Atfol	Bolalar	Ahli usul	Faqihlar
Vard	Gul	Mahmil	Mahofa, kajava
Qosid	Ekchi	Porso	Taqvoli kishi
Ol	Qizil	Bayt ul-hazan	G'amxona
Payk	Elchi	Fatila	Pilik

Alisher Navoiy g'azallarini grammatik teglash izohtalab so'z ma'nolarining tushunariligi va o'qishli bo'lishini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi, Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko'p jihatlari bilan: arxaizm, istorizm, so'z ma'nolarining tubdan o'zgarganligi, ya'ni Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega bo'lgan so'zlar, bugun ma'no o'zgarishiga, ma'no torayishiga uchrab yoki so'zning atash ma'nosi o'zgarib so'z turkumi o'zgargan. Navoiy asarlarini o'rganishda lug'at boyligining kattaligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruktsiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda grammatik tahlil muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Rahimov A. Komputer lingvistikasi asoslari - T.: Akademnashr, 2011. – 154 b.
2. Qurbonbekov A., Mannonov A., Imomnazarov M. Alisher Navoiy asarlari bo'yicha konkordans tuzish qo'llanmasi. – T.: Fan va texnologiya. 2015. – 3 b.
3. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan. 1984, – 6-7 b.
4. Tursunov U. va b. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 91 b.
5. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq nashriyoti. 2010. – 97 b.
6. Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar www.ziyouz.com кутубхонаси. – 45 b.
7. Nurmonov A. Uzbek tilshunosligi tarixi, Uzbekiston – Toshkent: 2002. – 92 b.
8. Anorbekova A., Sh. Mirzayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili, "Noshir" nashriyoti – Toshkent: 2011. – 82-b.
9. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. – Toshkent: 2009. – 131 b.
10. Muhammad X. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Akademnashr. 2017. – 407-b.
11. Isoqov Yo. Navoiy poyetikasi. – Toshkent. Fan nashriyoti. 1983. – 167. b.